



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar—sentyabr

## RAQAMLAR:

- 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 34308,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 121,3 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga bozor xizmatlari hajmi 13826,1 ming.so'mni tashkil etdi.


Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xilma-xildir. Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omildir

Respublikada amalga oshiralayotgan iqtisodiy islohotlar xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, Toshkent shahrida 2018 yil yanvar—sentyabr oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 34 308,0 mlrd. so'mni tashkil etdi .

Bozor xizmatlarining salmoqli hajmi savdo xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, transport xizmatlari, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, ta'lim sohasidagi xizmatlarda kuzatilmoqda.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 47,8 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning jami korxonalar va tashkilotlar sonidagi ulushi 72,0% ni tashkil etdi.

## 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida korxonalar va tashkilotlar jami sonida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % da




## 2018 yil yanvar—sentyabr oylarida Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarining ishlab chiqarish hajmi

|  | Xajmi,<br>mlrd.so'm | O'tgan yilga<br>nisbatan o'sish<br>sur'ati, %da |
|--|---------------------|---|
| Xizmatlar (jami)                             | 34 308,0            | 112,5   |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari        | 3 582,0             | 118,9   |
| Moliyaviy xizmatlar                          | 8 208,2             | 121,3   |
| Transport xizmatlari                         | 4 285,0             | 114,3   |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmati</i>   | 2 599,7             | 102,9   |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari            | 1 399,5             | 107,9   |
| Savdo xizmatlari                             | 9 245,0             | 103,6   |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar        | 1 534,1             | 103,7   |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar                  | 1 668,3             | 121,7   |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar       | 581,1               | 115,8   |
| Ijara xizmatlari                             | 650,2               | 105,2   |
| Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 178,2               | 107,3   |
| Shaxsiy xizmatlar                            | 447,1               | 103,0   |
| Me'morchilik sohasidagi xizmatlar            | 895,8               | 132,3   |
| Boshqa xizmatlar                             | 1 633,5             | 106,4   |

2018 yil yanvar—sentyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (132,3 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (121,7), moliyaviy xizmatlar (121,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (118,9 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (115,8 %), transport xizmatlar (114,3 %) kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarga oshdi.

### 2018 yil yanvar—sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da




Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori texnologik xizmatlarning yanada rivojlanishi, xizmatlarning yangi turlarini kengaytirilishi, shuningdek, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yaxshilanishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.

2018 yil yanvar—sentyabr oylarida transport xizmatlari hajmini oshishiga ta'sir qilgan omillaridan biri yo'lovchi va yuklarni tashish xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi hisoblanadi.

Transport xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar (60,7 %) egallaydi. Bu uning harakatchanligi, yuklarni (yo'lovchilarni) yo'lda boshqa transportga qo'shimcha yuklamasdan (o'tkazmasdan) "eshikdan eshikgacha" etkazib berishda qulayligi, transport vositasini harakatlantirishda mustaqilligi bilan izohlanadi.

### 2018 yil yanvar—sentyabr oylarida xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi, %



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush—savdo xizmatlari (26,9 %); moliyaviy xizmatlar (23,9 %); transport xizmatlari (12,5 %); aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (10,4 %); ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (4,5 %); Yashash va ovqatlanish xizmatlari (4,1 %) tashkil etadi.

## 2018 yil yanvar—sentyabr oylarida Toshkent shahri bo'yicha tumanlar kesimida xizmatlarining ishlab chiqarish hajmi

|                        | Xajmi,<br>mlrd.so'm | O'tgan yilga<br>nisbatan o'sish<br>sur'ati, %da |
|------------------------|---------------------|---|
| <b>Toshkent shahri</b> | <b>34 308,0</b>     | <b>112,5</b>                                    |
| tumanlar:              |                     |   |
| Uchtepa                | 1 862,3             | 104,3   |
| Bektemir               | 920,1               | 108,0   |
| Yunusobod              | 6 464,9             | 119,4   |
| Mirzo Ulug'bek         | 3 456,7             | 114,7   |
| Mirobod                | 5 138,8             | 109,7   |
| Shayxontoxur           | 3 553,6             | 110,0   |
| Olmazor                | 1 753,1             | 106,6   |
| Sergeli                | 2 088,8             | 124,5   |
| Yakkasaroy             | 2 251,9             | 107,2   |
| Yashnobod              | 3 352,1             | 118,7   |
| Chilonzor              | 3 260,1             | 108,6   |
| Tumandan tashqarida    | 205,6               | 79,5  |

Tumanlar o'rtasida eng katta hajm Yunusobod (6 464,9 mlrd.so'm) va Mirobod (5 138,8 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Bektemir (920,1 mlrd.so'm) va Olmazor (1 753,1 mlrd.so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.

Tumanlar o'rtasida Yunusobod tumani etakchi o'rinni egallaydi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Yunusobod tumaning ulushi 18,8 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiy hajmida tumanlar bo'yicha eng yuqori ulushlarni Mirobod (15,0 %), Shayxontohur (10,3 %), Mirzo Ulug'bek (10,1 %) va Yashnobod (9,8 %) tumanlari tashkil etadi.


**2018 yil yanvar-sentyabr oylarida Toshkent shahar bo'yicha jami xizmatlar hajmida tumanlarning ulushi**  
(jami hajmga nisbatan), %



Tumanlar o'rtasida eng past ulushlar Bektemir (2,7 %), Olmazor (5,1 %), Uchtepa (5,4 %) va Sergeli (6,1 %) tumanlarga to'g'ri keladi .

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng yuqori ulush telekommunikatsiya xizmatlariga (mobil aloqa, Internet tarmog'i, yo'ldosh aloqa xizmatlari va b.) to'g'ri keladi - 75,0 %.

### Tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'ati, % da




Tumanlar o'rtasida eng yuqori o'sish sur'ati: Yunusobod (133,7 %), Yashnobod (124,8 %), Chilonzor (113,5 %) va Shayxontohur (111,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Tumanlar o'rtasida eng past o'sish sur'ati: Yakkasaroy (91,1 %), Sergeli (102,8 %), Mirobod (103,0 %) va Olmazor (106,0 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,3 % ga etdi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari Yakkasaroy (145,5 %), Yashnobod (133,0 %), Mirzo Ulug'bek (131,8 %), Yunusobod (119,9 %) va Mirobod (128,6 %) tumanlarida kuzatildi.


### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da






Ta'lim sohasidagi islohotlarni davom ettirish, o'qitish uslubiyatlariga innovatsion yondashuvlarni joriy etish ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 4,9 foizga oshdi va 1 668,3 mlrd.so'mni tashkil qildi. Bu oliy o'quv yurtlarida yuqori stavkali shartnomalar hisobiga xizmatlar hajmining oshganligi bilan izohlanadi.

### 2018 yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar umumiy hajmida ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi, % da



2018 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 13 826,1 ming.so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 110,6 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Mirobod tumanida – 37 980,9 ming.so'm qayd etildi. 2017 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan o'sish 107,9 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Olmazor tumantida – 4 938,4 ming.so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 104,9 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahar

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: Aleshunina O.V.